

Date: 15th June-2026

AN`ANAVIY MAVZU DOIRASIDA POETIK IFODANING YANGILANISHI

Ruzimatova Gulzoda Sharipovna

(UrDU Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrası o'qituvchisi)



Erpo'lat Baxtning ko'plab she'rlaridan qadim Xorazm vohasining, Amu suvlarining, navqiron gujumlarning salqin nafasini, ajib bir yengillikni tuyasiz. Shoirning "Shodlik hidi" she'riy to'plamiga kirgan turkum she'rlarda milliy qadriyatlar va urf-odatlariga hurmat, vatanga muhabbat, faxr-iftixor, ertangi kunga ishonch, ezgu orzular, mehmondo'stlik, mehnatsevarlik, bolajonlik, halollik, yaxshilik kabi milliy-mental g'oyalarning umuminsoniy miqyos kasb etishini ko'rish mumkin. An'anaviy mavzu doirasida poetik ifodaning yangiligi, xalqona ohangning milliylik, vatanparvarlikka yo'g'rilgan holda baxshi bola tilidan ifodalanishida ko'rinadi. She'rning asosiy g'oyasi – vatanparvarlik. Boshqa barcha yondosh g'oyalar uning tarmoqlari bo'lib, markaziy g'oyani yanada yorqinroq ifodalashga xizmat qilgan. Shoir xalqimizga xos bolajonlik fazilatlarini kelajak va sho'x bola detallariga ishora qilish orqali o'ziga xos ifodalagan. Ularni yomonotliq qilishni istamasligini, ulardan katta umidi borligini ko'rsatib bergan:

...uqmasangiz gapimni,
Tishlab qolib labimni,
Burishtirib aftimni,
Qoshlarimni chimirib
Kamon qilgim kelmaydi.¹

Ta'kidlash zarurki, bu davrda yaratilgan aksariyat she'rlar badiiy jihatdan baquvvat, ijtimoiy mazmuni salmoqli, fosh qilish pafosi, estetik qimmatini bilan e'tiborni tortadi. Erpo'lat Baxt ijodida bahor va qish bahsi tasviri juda go'zal poetik tarzda beriladi.² Bu she'r o'quvchi yoshlarning poetik bilimlarini boyitadi. Undagi jonlantirish, perefriz va mahorat bilan qo'llangan maqol hissiyotga ta'sir ko'rsatish bilan birga, intellektual salohiyatini ham oshirishga xizmat qiladi.

Dala-dashtda qish ho'mrayar
Xafa bo'lib quyoshdan.
Taqdir qisgan qor-qirovni
Tog'dek chidam – bardoshdan.

Bu bandda "ho'mrayar" so'zida jonlantirish vositasi vazifasini o'tagan. Dala-dashtda qolgan-qutgan qor uyumlari u joy, bu joyda qolgan va ular tasavvurda ho'mraygan qiyofani tasavvurda gavdalantiradi.

Iliqlikdan sumalaklar
Ko'zidan yosh chakillar.
Qibla yoqdan shoshib kellar
Ilk bahordan vakillar.

¹ Эрпўлат Б. Шодлик ҳиди. – Toshkent: Академнашр, 2011. - Б. 14.

² Baxt, Erpo'lat. Shodlik hidi (she'rlar, dostonlar va ertak). - T.: Akademnashr, 2011. – B.11.

Date: 15th June-2026

“Ilk bahordan vakillar” jumlasida perefraz (qayta nomlash) qo‘llangan. Bu o‘rinda “vakillar” ko‘p bo‘lishi mumkin. Bahor vakili o‘simliklar ham bo‘lishi mumkin edi. Bu joyda “Qibla yoqdan shoshib kelar” misrasi keyingi misraning “sir”ini ochishga xizmat qilgan.

Matal aytar donoligi

Tutib Chittak sho‘x shodon:

“Ayozi og‘a, navbat bilan

Aylanadi tegirmon...”

Ushbu bandda o‘zbek xalq maqoli she‘r g‘oyasiga juda ustalik bilan singdirib yuborilgan. Shu bilan birga bu manzara juda jonli va ta‘sirchan chiqqan. Chittakning a‘lo kayfiyati va xursandligi u “aytgan” mataldan ham ko‘rinib turibdi.

Bahor madhiga bag‘ishlangan she‘rda ham vatanparvarlik tuyg‘usi milliy qadriyatlar, yaxshilik tushunchalari bilan yo‘g‘rilgan holda, go‘zal bahoriy tabiat ifodasi orqali namoyon bo‘lgan. Shoir moychechak tasvirini o‘ziga xos, original o‘xshatish orqali mehrli, nurli misralarga joylagan.

Erta bahor moychechak

Qalpoq kiydi quyoshrang.

Hayrat ichra do‘stlari

Bo‘lib qoldi hang-u mang (19).

Shoir bahor nafaqat olamning, balki dilning ham bayrami deya haqli ta‘riflar ekan, bu ulug‘ kunda qalblarni poklashga, yaxshilikka intilishga va uni himoya qilishga da‘vat qiladi. Ijodkor so‘zning vaznini, bosimini, shakl-u shamoyilini juda yaxshi anglagan holda, bahorning muqarrar g‘alabasini shoirona teran nigoh bilan favqulodda zo‘r topilma vositasida ko‘rsatib beradi:

Eshitgisi kelmas qishning

Maysalar “kisht-kisht”ini.

Dov-daraxt tugib turar

Mitti kurtak – mushtini.³

Bu bandni she‘rning kulminatsiyasi deyish mumkin. Kurtaklar badiiy obraz darajasiga ko‘tarilgan. Bu o‘rinda shoir oddiy ko‘z bilan ko‘rib bo‘lmaydigan, shoirona nigohgina ilg‘aydigan jihatga e‘tibor bergan. Mitti kurtakning mushtga o‘xshatilishi juda chiroyli badiiy topilma bo‘lganini ta‘kidlash lozim. Bu she‘r o‘quvchining badiiy tasavvur dunyosini boyitishga katta hissa qo‘shadi.

Erpo‘lat Baxtning “Ezgulik” she‘rida ham belgi -shakl orqali poetik mazmunni ifodalashning o‘ziga xos namunasi ko‘rish mumkin. Odatda, o‘zbek xalqi haqida gap ketganda, “mehmondo‘st”, “bag‘rikeng”, “jo‘mard, yalangto‘sh” kabi sifatlashlar ishlatiladi. Shoir millatning ana shu fazilatlaridan kelib chiqib, she‘rda o‘zbekning betakror siyrati – portretini jonli va jonsiz narsalar misolida tasvirlaydi. She‘r mazmunidan o‘zbek kishisining eng xarakterli fazilatlaridan biri fidoyilik olqishlanadi. Misralar quyma,

³ Ўша асар. - Б. 11.

Date: 15th June-2026

qofiyalar tabiiy, soʻzlar ohangdor ekani ham manzumaning oʻqishli, taʼsirchan chiqishini taʼminlagan muhim omillardir. Birinchi toʻrtlikda oʻzbek bolasi oqibatni hatto bulutdan ham oʻrganishi haqida gap ketadi, fidoyilikning poetiklashgan surat-u siyrati quyidagicha chiziladi:

Ezgu ish deb teraklar
Koʻrk beradi har yonga.
Chopishsa ham ildizin
Ustun boʻlar ayvonga.⁴

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

¹ Эрпўлат Б. Шодлик ҳиди. – Toshkent: Академнашр, 2011. - Б. 14.

¹ Baxt, Erpoʻlat. Shodlik hidi (sheʼrlar, dostonlar va ertak). - T.: Akademnashr, 2011. – B.11.



⁴ Эрпўлат Б. Шодлик ҳиди. – Toshkent: Академнашр, 2011. - Б. 15.